



UDK:159.923.2

Roziya XUDAYBERGANOVA,

Urganch davlat universiteti tajyor-tadqiqotchisi, Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

E-mail: khraziyakh@gmail.com

UrDU dotsenti v.b. Saidmurodova taqrizi asosida

IDENTIFICATION AS THE PRIMARY MECHANISM OF PERSONALITY FORMATION

Annotation

This article provides a theoretical analysis of the phenomenon of identification as one of the key mechanisms of personality development. Within the frameworks of psychoanalytic, humanistic, analytical, and behaviorist approaches, the content, forms, and functions of identification are explored. The article also discusses the role of identification in personality ontogenesis and its relationship with social roles, gender, values, and self-identity. According to the research findings, identification is considered an important factor in personal growth, socialization, and self-awareness.

Key words: Identification, personality development, self-awareness, psychoanalysis, humanistic psychology, projective identification, social roles, self-concept, ontogenesis, psychological mechanism.

ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ОСНОВНОЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В данной статье теоретически анализируется феномен идентификации как один из основных механизмов развития личности. В рамках психоаналитического, гуманистического, аналитического и бихевиористского подходов раскрываются содержание, формы и функции идентификации. Также объясняется роль идентификации в онтогенезе личности, её связь с социальными ролями, полом, ценностями и самостью. По результатам исследования идентификация рассматривается как важный фактор личностного роста, социализации и самопонимания.

Ключевые слова: Идентификация, развитие личности, самосознание, психоанализ, гуманистическая психология, проективная идентификация, социальные роли, концепция «Я», онтогенез, психологический механизм.

IDENTIFIKATSIYA – SHAXS SHAKLLANISHINING ASOSIY MEKANIZIMI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan identifikatsiya hodisasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Psixanalitik, gumanistik, analitik va bixevioristik yondashuvlar doirasida identifikatsiyaning mazmuni, shakllari va funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, shaxs ontogenezida identifikatsiyaning o'rni, uning ijtimoiy rollar, jins, qadriyatlar va o'zlik bilan bog'liqligi izohlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra identifikatsiya shaxsiy o'sish, ijtimoiylashuv va o'z-o'zini anglashda muhim omil sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: Identifikatsiya, shaxs rivojlanishi, o'zlikni anglash, psixanaliz, gumanistik psixologiya, proektiv identifikatsiya, ijtimoiy rollar, "Men" konsepsiyasi, ontogenez, psixologik mexanizm.

Kirish. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda inson shaxsining shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli va ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin etilmoqda. Bu jarayonda identifikatsiya asosiy mexanizmlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Identifikatsiya – bu individning o'zini boshqa odamlar, rollar, qadriyatlar yoki obrazlar bilan ongli yoki ongsiz ravishda bog'lash jarayoni bo'lib, shaxsiy o'zlikning shakllanishi va o'zini anglashning poydevorini tashkil etadi.

Psixologik adabiyotlarda identifikatsiya fenomeni turli nazariy yondashuvlar – psixanalitik (Z.Freyd, A.Freyd, M.Klein, E.Erikson), analitik (K.Yung), gumanistik (K.Rodgers) va ijtimoiy-kognitiv (A.Bandura) maktablar doirasida keng yoritilgan.

Identifikatsiya fenomenining dolzarbligi shundaki, u shaxsning ijtimoiy moslashuvi, rolni egallashi, o'zligini anglashi va jamiyatdagi o'rnini topishda markaziy o'rin egallaydi. Ayni paytda yoshlar orasida identitet inqirozi, rol chalkashligi, ijtimoiy qadriyatlarga moslasha olmaslik holatlari ortib borayotgan bir paytda, identifikatsiya mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish zaruratga aylangan. Yosh bosqichlari davomida o'zini anglash, o'z ro'lini topish, gender identifikatsiyasi va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs to'liq va mustaqil psixologik tuzilma sifatida shakllanadi. Ushbu jarayonlarni chuqurroq anglash, amaliy

psixologiya va tarbiya tizimida individual yondashuvlarni belgilashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot nazariy-uslubiy tahlilga asoslangan bo'lib, mavjud ilmiy manbaalar, jahon psixologiyasi bo'yicha maqolalar, amaliy tajribalar va internet resurslari asosida olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Asosiy tadqiqot manbaalari sifatida O.B.Belanovskaya, B.S.Basyuk va A.A.Nikolayev kabi mualliflarning ishlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Psixologik manbaalarda identifikatsiya atamasi ilk marotaba psixanalitik Z.Freyd tomonidan taklif qilingan. Uning fikricha, identifikatsiya erta bolalik davrida bolaning ota-onasi bilan ongsiz ravishdagi munosabatlari asosida o'z shaxsini shakllantirish usuli bo'lib bolaga xulq-atvor, ijtimoiy rollar va meyorlarni tushunishga yordam beradi va quyidagicha tasniflanadi:

Emotsional xarakterga ega;

Shaxsning "Super-Ego"ni shakllantiradi;

Onalik yoki otalik prototiplarini shakllantiradi;

Faqat bolalik davrida (0-6 yosh) sodir bo'ladi.

Z.Freydning shogirdlari Anna Freyd va Melanie Klein kabi psixoanalitiklar shaxsiyatni himoya mexanizmlaridan biri sifatida o'rganishdi. Xususan, A.Freyd tajovuzkorlik va identifikatsiya mexanizming bog'liqligini tahlil qilib, odam

unga tahdid solayotgan shaxsning xususiyatlarini qabul qiladi, bu esa unga muammo bilan kurashishga yordam beradi, degan fikrni ilgari surgan.

Identifikatsiya murakkab aqliy rivojlanishning muhim elementi sifatida talqin qilinib, u proyeksiya va introyeksiya jarayonlari bilan bog'liq. Proyektiv identifikatsiya tushunchasi psixologiyada alohida ahamiyatga ega, chunki u bizning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning mohiyati shundaki, biz ongsiz ravishda o'z fikrlarimizni, his-tuyg'ularimiz va istaklarimizni boshqa odamga ma'lum bir reaksiyani keltirib chiqarish niyatida yetkazamiz.

Ilk marotaba psixanalit Melanie Klein tomonidan aniqlangan proyektiv identifikatsiya psixologiyadagi himoya mexanizmi bo'lib, inson o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ongsiz ravishda boshqalarda aks ettiradigan proyeksiya tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jarayon uzoq muddat davom etib, inson boshqa shaxslarda muayyan xatti-harakat yoki reaksiyalarni uyg'otishga faol tarzda intiladi.

Proyektiv identifikatsiyaning quydagicha mexanizmlari mavjud:

Ongsiz proyeksiya. Inson o'z his-tuyg'ulari, fikr va istaklarini boshqa odamlarga ongsiz ravishda aks ettirishga asoslangan. Odatda bu proyeksiya inson o'zini tan olishga tayyor bo'lmagan salbiy his-tuyg'ular yoki kamchiliklar orqali ifodalanadi.

Manipulyatsiya. Proyektiv identifikatsiyaning bu turidan foydalanadigan odamlar ko'p hollarda boshqa odamga bashorat qilingan xatti-harakatlar yoki his-tuyg'ularni keltirib chiqarishi uchun ta'sir o'tkazishga intiladi. Bu ta'sir shaxsning xabardorlik darajasi va maqsadlariga qarab yashirin yoki aniq bo'lishi mumkin.

Himoya mexanizmi. Shaxs o'zining xavotirli yoki salbiy hissiy holati bilan to'g'ridan to'g'ri qrama-qarshilikdan qochishga yordam beradigan himoya mexanizmi sifatida ishlaydi. Ushbu tuyg'ularni boshqa odamga ko'chirish ularni bevosita boshdan kechirishga to'sqinlik qiladi.

Psixanalitik yo'nalishning yana bir yirik vakili E.Erikson shaxsning rivojlanishida o'zlikni anglash va identifikatsiya jarayonining alohida o'rni ega ekanini ta'kidlab, o'zlikni anglash ayniqsa o'smirlik davrida dolzarb bo'ladi. Bu bosqichda yuzaga keluvchi shaxsiy identifikatsiya qanchalik murakkab bo'lsa, bu holat rol chalkashligiga olib kelishi mumkinligini eslatadi.

Analitik psixologiya asoschisi K.Yung identifikatsiyaning o'ziga xos funksiyasini guruh va arxetiplar bilan subyektni aniqlash mexanizmi sifatida ta'kidlab, bu jarayon ongsiz ravishda yuzaga kelishini hamda shaxs rivojlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilishini ta'kidlagan.

Rus psixologiyasi namoyondasi V.S.Muxinaning fikricha, keyingi yosh bosqichlarida identifikatsiya o'ziga xos yo'nalish oladi va bu yo'nalish yaqinlik (intimlik) shaklida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs o'zini boshqa inson bilan identifikatsiya qilishdan qo'rqmaydi, o'zini yo'qotish xavfi bo'lmasdan, aksincha, o'zligini boyitadi.

Gumanistik psixologiya vakili K.Rodgersning qarashlarida identifikatsiya shaxsning o'z - o'zini anglash va shaxsiy o'sish jarayonining markazida turadi. Uning g'oyasiga ko'ra, inson doimiy ravishda o'zini tushunishga, qabul qilishga va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga intiladi. Bu jarayon ichki uyg'unlik va moslikka erishish orqali amalga oshadi.

K.Rodgers shaxsning "Men" ini quyidagicha tuzilgan kompleks sifatida tavsiflaydi:

Real "Men" – insonning o'zini qanday qabul qilishi, ya'ni o'zi haqidagi real tasavvurlari.

Ijtimoiy "Men" – insonning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy ro'li va bu ro'lgan bo'lgan subyektiv munosabati.

Jismoniy "Men" – insonning o'z jismoniy ko'rinishi, sog'lig'i, kuchi, jozibadorligi haqidagi tasavvuri.

Ideal "Men" – insonning qanday bo'lishini istashi, ya'ni uning orzulari, maqsadlari va o'zini mukammal tasavvur qilishi.

Rodgersning ta'kidlashicha, shaxsning ichki xotirjamligi va psixologik salomatligi aynan "Real Men" va "Ideal Men" o'rtasidagi muvofiqlik darajasiga bog'liq. Agar inson o'z idealidan juda yiroq bo'lsa, bu ichki konflikt, o'zini past baholash va muammoga sabab bo'ladi. Aksincha, o'zini idealiga yaqin deb hisoblasa, u holda inson "moslashgan shaxs" ga aylanadi – bu Rodgersning "to'laqonli faoliyat yurituvchi shaxs" modelidir.

Bixevioristik yondashuv asoschilari J.Watson, B.F.Skinner, D.Dollard, N.Miller, A.Bandura inson xulqi tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanuvchi kuzatiladigan hodisa sifatida ko'rib chiqadilar. Bu yondashuvga ko'ra identifikatsiya o'rganilgan xulq sifatida tushunilib, shaxs model sifatida qabul qilingan boshqa bir individning xatti-harakatlarini takrorlaydi.

A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv nazariyaga asosan, bolalar nafaqat ota-onalari yoki o'qituvchilari bilan, balki mashxur shaxslar, multfilim qahramonlari va tengdoshlar bilan ham identifikatsiyalanishi mumkin.

Shaxs ontogenezida identifikatsiya – bu individ tomonidan o'zini tanish, ijtimoiy muhitdagi o'rni anglash va o'zligini shakllantirish jarayoni bo'lib, u quyidagicha yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Ism bilan identifikatsiya – bola o'z ismini qabul qilib, o'zini boshqa insonlardan ajratadi. Bu shaxsiy identifikatsiyaning boshlang'ich nuqtasidir va o'zini "Men" deb anglashni bildiradi.

Ijtimoiy rollar bilan identifikatsiya – bola yoki shaxs o'zini "bola", "o'quvchi", "do'st", "farzand", "fuqaro" kabi ijtimoiy rollar orqali tanlaydi va o'zining jamiyatdagi o'rni aniqlaydi. Bu jarayon orqali shaxs ijtimoiy meyor va vazifalarni o'zlashtiradi.

Jins bilan identifikatsiya – bola o'z jinsiy identifikatsiyasini shakllantiradi: "men qizman" yoki "men o'g'ilman" degan anglash orqali genderga oid stereotiplar va xulqiy andozalar o'zlashtiriladi.

Zamonaviy "Men" obrazlari bilan identifikatsiya – shaxs o'zining o'tmishi, hozirgi holati va kelajakdagi ideallari bilan o'zini bog'laydi. Bu jarayon shaxsning ichki uzluksizligini (identitetni) shakllantiradi.

Ijtimoiy qadriyatlar bilan identifikatsiya – shaxs muayyan ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni qabul qilib, ular bilan o'zligini uyg'unlashtiradi. Bu bosqich shaxsning ma'naviy va axloqiy shakllanishiga asos bo'ladi.

Tadqiqotda ta'kidlanganidek, bugungi globallashuv, madaniy aralashuv va ijtimoiy rollarning o'zgaruvchanligi sharoitida shaxsiy identifikatsiya jarayoni tobora murakkablashmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida identitet inqirozi, gender chalkashliklari va ijtimoiy o'zini topa olmaslik holatlarining ortib borayotgani identifikatsiyaning nafaqat nazariy, balki amaliy psixologiya nuqtai nazaridan ham chuqur o'rganishni taqozo etadi. Shu bilan birga, identifikatsiya jarayonida tarbiya, oila, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimining tutgan o'rni ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Bu tizimlarning har biri shaxsning qaysi obrazlar bilan identifikatsiyalanishini bevosita shakllantiradi va boshqaradi.

Xulosa. Maqolada identifikatsiya shaxs shakllanishining universal va ko'p funksiyali psixologik mexanizmi sifatida har tomonlama ko'rib chiqildi. Tahlil shuni ko'rsatadiki:

Identifikatsiya turli yosh davrlarida, turli shakllarda (emotsional, ijtimoiy, kognitiv) namoyon bo'ladi;

Psixoanalitik yondashuv identifikatsiyani ongsiz va erta bolalik davrida yuzaga keluvchi asosiy mexanizm sifatida talqin etadi;

Gumanistik nazariya shaxsning o'z idealiga intilishi orqali o'zlikni anglashga urg'u beradi;

Bixavioristik yondashuv esa identifikatsiyani taqlid va o'rganilgan xatti-harakatlar asosida tushuntiradi;

Ontogenez davomida shaxs ism, jins, rol, qadriyat va vaqt o'qlarida identifikatsiya qilinib, o'zining ijtimoiy va psixologik o'zligini shakllantiradi.

Shunday qilib, identifikatsiya insonning psixologik shakllanishida asosiy, yo'naltiruvchi va integratsiyalovchi rol o'ynaydi. Uni chuqur anglash shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Белановская, О.В. Идентификация как механизм развития личности / О.В.Белановская // Адукацыя і выхаванне. – 2000. – № 10. – С. 36–40.
2. Басюк В. С., Николаев А. А. Идентификация и идентичность: теоретико-методологический аспект // Ярославский педагогический вестник. 2024. № 3 (138). С. 161-175.
3. <https://5prism.ru/articles/psihologiya/identifikacziya-v-psihologii/>
4. <https://talentsy.ru/blog/identifikatsiya-v-psikhologii/>
5. <https://blog.wikium.ru/ponyatie-identifikatsii-lichnosti-v-psihologii.html>